

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Giyohvand moddalarni sotish, tarqatish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash uchun neyron tarmoqlari algoritmlarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - kibermakonda narkotik moddalarning aylanishi sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi usullarini ishlab chiqiladi; - ishlab chiqilgan algoritmlar kibermakonda huquqbuzarliklarni monitoring qilish va aniqlash uchun vaqt va mehnat sarfini sezilarli darajada iqtisod qilish imkonini beradi; - algoritmlarning amalda qo'llanilishi narkotik moddalarni sotish va tarqatish sohasidagi huquqbuzarliklarning keskin kamaytirishga olib keladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Tadqiqot natijalari Ichki ishlar vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Ichki ishlar vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ichki ishlar vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.